

Mavzu: Nabi Jaloliddin. «Ota» hikoyasi

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- o'z fikrini imlo va husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yozma ifoda etadi;
- mavzuni qayta o'rganib, o'z fikr-mulohazalari, taassurotlari va xulosalarini aniq, tartibli (ketma-ketlikka amal qilgan holda) ifodalaydi;
- xalq maqollari, hikmatli so'zlar ma'nosini tushungan holda o'z nutqida qo'llaydi, matn tuzishda yordamchi so'zlardan o'rinli foydalanadi;
- o'z yozma nutqida kiritmalardan, tinish belgilaridan o'rinli va to'g'ri foydalanadi;
- asar bo'yicha olgan bilimlarini amalda qo'llaydi;
- asar mazmunini tahlil qilib, lirik qahramon xarakterini ochib berishi, uning hissiy kechinmalarini bayon qilishi talab etiladi.

TAASSUROT YOZISH UCHUN TAVSIYALAR:

1. Mavzuni qayta o'qib chiqing.
2. Eng yoqqan o'rinlarni belgilab oling.
3. Matndagi shu o'rinlar nima uchun yoqqanini o'ylab ko'ring.
4. O'ylaringizdagi fikrlarni tartiblang (masalan, qaysi fikrimni oldin, qaysi birini oldingi fikrimdan keyin joylashtiraman... kabi). Shu ketma-ketlikda taassurotingizni yozishni boshlang.
5. Tahlil qilayotgan asaringizdagi fikrlar yoki voqealarni yana qaysidir asarda uchratgan bo'lishingiz mumkinligini o'ylab ko'ring (agar o'xshash voqealar yoki fikrlar mavjud bo'lgan asarni eslay olsangiz, ularni solishtirib ko'ring).
6. Yozganlaringizni tahrirlang.
7. Oqqa ko'chiring.
8. Qayta tahrirlang.
9. Taqdim eting.

Baholash mezonlari (50 ball)

15 ball		1 -2 ta	3-4 ta	5-6 ta	7-8 ta
1. Imlo xatolari	10 ball	10–9 ball	8–7 ball	6–4 ball	3–1 ball
2. Tinish belgilari	3 ball	3 ball	2 ball	1 ball	
3. Husnixat	2 ball				
matn aniq, ravon, tushunarli hamda husnixat qoidalariga rioya qilingan holda yozilgan bo'lsa –	2 ball				
husnixat noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o'qish qiyin, shuningdek, harflar bo'yalgan bo'lsa –	1 ball				
Fikrini aniq, to'g'ri, asosli va izchil ifodalashi (35 ball)					
Taassurotni tavsiyalar asosida, to'g'ri ketma-ketlikda yozgan, fikrlarini tartib bilan ifoda etgan, qarashlarini asoslab bergan, matnni tahrirlagan, shuningdek, ishni o'z fikr-mulohazalari asosida boyitib xulosalay olgan bo'lsa –					35 – 30 ball
Taassurotni yozish mobaynida tavsiyalardan to'liq foydalanmagan, shu sabab fikrlarida izchillikning biroz izdan chiqqanligi sezilib qolgan, ammo har bir fikri asoslangan, ishni xulosalay olgan bo'lsa –					29 – 23 ball
Taassurotni yozish mobaynida tavsiyalardan to'liq foydalanmagan, shu sabab fikrlarida izchillikning izdan chiqqanligi sezilib qolgan, ayrim fikrlar asoslanmagan, ammo ishni xulosalay olgan bo'lsa –					22 – 15 ball
Taassurot yozishda tavsiyalardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlarini izohlashda og'ish kuzatilgan, ayrim fikrlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, xulosalari ham juda jo'n bo'lsa –					14 – 7 ball
Taassurot yozishda tavsiyalardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlarini izohlashda og'ish kuzatilgan, ayrim fikrlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, ishning xulosa qismi yozilmagan bo'lsa –					6 – 1 ball